

YB

Yerlarni auksionga chiqarish jarayonlari muddati qisqartiriladi:

ijarada: 48 kundan 15 kunga

mulk huquqida: 74 kundan 20 kunga

Yer maydonining haqiqiy bahosi auksionda aniqlanadi

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

36 (16489)
2022-yil, 8-iyun
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Mahallada yoshlar yetakchisi
4-bet

Mahallalar reytingi
6 oyda qayta ko'rib chiqiladi

Moliya kundaligi
6-bet

Qadimgi Rim
bankirlari

Til bilimi
7-bet

Pensiya va
nafaqaning farqi



ENG FAOL YETAKCHIGA "SPARK" BERILDI

SO'X TUMANIDAGI "SHARQOBOD" MAHALLASI YOSHLAR
YETAKCHISI SHOHJAHON RAHIMBERDIYEV
PREZIDENT SOVG'ASI BILAN TAQDIRLANDI.

4-betga
qarang ↓

BUXORO

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

BIRINCHI TURKIY DUNYO YOSHLAR TASHABBUSLARI POYTAXTI




Avval xabar qilganimizdek, Buxoroda bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkilotining IV Yosh liderlar forumi turkiy xalqlar yoshlari hayotida unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Qardosh yoshlar o'zaro fikr almashib, yangi g'oya va takliflar borasida suhbatlashdi. Do'stlik rishtalari mustahkamlanib, hamkorlik aloqalari kengaydi.

Buxoroga "Birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti" maqomining berilishi forumning kulminatsiyasi bo'ldi. Birdamlik ramziga aylangan "Turkiy dunyo yoshlari bog'i" esa Turkiy davlatlar yoshlarining hamkorligini yanada mustahkamlaydi.

Buxoroning tarixiy qadamjolari – Sitorayi Mo'hi-xosa, Labihovuz, Eski shahar, Minorayi Kalon, Ark, Bahouddin Naqshband majmuasi delegatsiya a'zolarida katta qiziqish uyg'otdi. Gala-konsert dasturi esa barchaga xush kayfiyat bag'ishlab, turkiy madaniyatdan so'zladi.

Quvonarlisi, mazkur forum yaqin kelajakda yoshlarning buyuk tashabbuslari uchun muhim qadam bo'lishi va O'zbekistonning jahon integratsiyasida tutgan o'rnini mustahkamlashda muhim ko'priq vazifasini o'tashiga ishonch bildirildi.

Forum yakunida Turkiy davlatlar tashkilotining Yosh liderlar forumi rezolyutsiyasi imzolandi. Shu tariqa turkiy davlatlar yoshlarini Buxoroda bir-lashtirgan Yosh liderlar forumi o'z nihoyasiga yetdi.



Uchqun XUDOYOROV,
Vazirlar Mahkamasining yoshlar
ishlari sho'ba'si mudiri:

– Mazkur forumning maqsadi turkiy davlatlar tashkilotining yuqori salohiyatini namoyon etish, ahamiyatini oshirish va xalqaro hamjamiyatdagi o'rnini kuchaytirishga qaratilgan. Forum munosabati bilan haqiqiy lider yoshlarni bir yerga – qadimiy Buxoro shahriga jamlashga muvaffaq bo'ldik. Tanlovning yuqori saviyada tashkil etilganligi ham ishtirokchilar tomonidan alohida e'tirof etildi. Forum bir necha ming yillik qardosh xalqlar yoshlarining hamkorligini yanada rivojlantirish va mustahkamlashda juda muhim o'rin tutadi. Forumning Buxoroda tashkil etilishi ham bejiz emas. Bizning maqsadimiz – Buxoroni jahon sivilizatsiya markaziga aylantirish.



Ali ABDULLAZADE,
Ozərbayjon delegatsiyasi vakili:

– Buxoro shahrida o'tkazilgan forumdagi seminar-trening va mahorat darslari bizda katta qiziqish uyg'otdi. O'zbekistonning hamda Turkiy davlatlarning ko'zga ko'ringan namoyandalari, ishbiarmonlari bilan uchrashdik, ular bilan suhbatlashdik. O'zimizni qiziqtirgan savollarga javob oldik.



Husniddin ISAKOV

177 IMKONIYAT

"MARD O'G'LO" DAVLAT MUKOFOTI KIMLARGA BERILADI



Prezidentimizning 2017-yil 2-noyabrda "Mard o'g'lon" davlat mukofoti ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, alohida yutuqlarga erishgan yigitlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanadi va bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari-d pul mukofoti beriladi.

"Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlangan yigitlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyat bosqichiga, oliy o'quv yurtlari talabalari yoki bakalavr darajasiga ega yoshlar esa magistratura bosqichiga tegishli yo'nalish

bo'yicha kirish imtihonlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadi.

Imtiyozga da'vogarlar:

"Mard o'g'lon" davlat mukofoti o'qishdagi muvaffaqiyatlari, ijtimoiy faolligi va iste'dodi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan iqtidorli yigitlarga fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot, san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohaslarida hamda huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun beriladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Davlat mukofoti har yili Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 2 nafardan vakillariga – jami 28 nafar yoshga beriladi.

Davlat mukofoti bilan taqdir-lash har yili "Yoshlar kuni" arafasida amalga oshiriladi.

Davlat mukofotiga talabgorlar bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat mukofotlari va geraldika bo'yicha komissiyaga O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashi tomonidan, shuningdek, davlat va xo'jalik

boshqaruvi organlari, ta'lim, sog'lqliq saqlash, madaniyat, sport muassasalari va boshqa tashkilotlarning takliflariga ko'ra, Yoshlar ittifoqining hududiy kengash raislari bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomalari asosida kiritiladi.

Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tarkibidan hamda harbiylashtirilgan o'quv yurtlaridan talabgorlar bo'yicha takliflar Komissiyaga tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining taqdimnomalari asosida kiritiladi.

"FIDOYI YOSHLAR YETAKCHISI" RESPUBLIKA KO'RIK-TANLOVI O'TKAZILMOQDA SIZ HAM ISHTIROK ETYAPSIZMI?

Xabaringiz bo'lsa, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, Mahalla va nuroniy-larni qo'llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida "Fidoyi yoshlar yetakchisi" respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilmoqda.

Oyina.uz muxbiri Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul xodimi Begmat Ochilovga ko'rik-tanlovning maqsad va vazifalari, talab va shartlari yuzasidan bir nechta savollar bilan murojaat etib, qatnashish istagidagi yoshlar uchun ma'lumot oldi.



"Innovatsion ijtimoiy loyiha" deb nomlangan uchinchi shartda mahalla yoshlari o'rtasida amalga oshiriladigan yangi innovatsion loyiha taqdimoti o'tkaziladi. Loyihani baholashda uning yoshlar hayotida qay darajada ahamiyatli, amalga oshirish realligi va natijadorligiga e'tibor qaratiladi. Maksimal 20 ball beriladi. "Iqtidor va iste'dod" nomli to'rtinchi shartda yoshlar yetakchisi biror sohadagi talantini erkin namoyon etib berishi talab etiladi. Bu shart uchun ham 20 ball belgilangan.

- Ko'rik-tanlovda qatnashish uchun qayerga murojaat qilish kerak?

- Tanlovda respublikamizning barcha mahallalarida ishlayotgan yoshlar yetakchilari ishtirok etishi mumkin. Buning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman va shahar bo'limlariga ariza bilan murojaat qilish lozim.

- "Fidoyi yoshlar yetakchisi" respublika ko'rik-tanlovini tashkil etishdan qanday maqsadlar ko'zlanmoqda?

- Prezidentning 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingach mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan yuksalmoqda. Barcha mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, yoshlar bilan ishlash bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

"Fidoyi yoshlar yetakchisi" respublika ko'rik-tanlovi ham yoshlarga oid davlat siyosatini samarali tashkil etish, yoshlar yetakchilarining ma'naviy saviyasi va bilimni oshirish orqali mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit rivojiga hissa qo'shish, yoshlarda Vatanga muhabbat, xalqimizga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash hamda yetakchilarning bu boradagi tajribasini ommalashtirish, mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida o'tkazilmoqda.

- Ko'rik-tanlov necha bosqichda o'tkaziladi?

- Tanlov uch bosqichda tashkil etiladi. Har yili iyun oyida barcha tuman va shaharlar miqyosida eng ilg'or yoshlar yetakchilari saralanadi. Ularning faoliyati to'rt shart bo'yicha baholanadi. Mahalliy doirada eng yaxshi deb topilgan bir nafar g'olib keyingi (hududiy) bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi iyul oyida bo'lib o'tadi. Bunda ham yoshlar yetakchilari to'rt shart asosida sinovdan

o'tkazilib, eng munosiblari respublika bosqichiga yo'l oladi. Har yili avgust oyining uchinchi o'n kunligida mamlakatimizning o'n to'rt hududidan saralanib kelgan g'oliblar o'zaro bellashadi.

- Bosqichlardagi to'rt shart va talablar bo'yicha ham gapirsangiz.

- **Birinchi shart** "Yoshlar siyosati bilimdoni" deb nomlanib, unda ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi savollarga javob beriladi. Har bir biletda 10 ta savol bo'lib, jami 20 ball to'plash imkoniyati mavjud.

Ikkinchi shart "Samarali faoliyat" deb atalgan. Bu shartda yetakchilar faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari haqida taqdimot qiladi. Taqdimotda slayd, ko'rgazmali vositalar, video materiallardan foydalangan holda quyidagi yo'nalishlardagi ishlar aks ettirilishi lozim: "Yoshlar balansi", "Yoshlar daftari", "Yoshlar portali" elektron platformalarining mahallada joriy etilganlik darajasi va natijadorligi - 5 ball; madaniyat va san'atni targ'ib qilish - 5 ball; sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish - 5 ball; axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish - 5 ball; ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish - 5 ball; yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish - 5 ball; tadbirkorlik g'oyalari qo'llab-quvvatlash - 5 ball; mahalla yoshlarining tuman, hudud, respublika va xalqaro miqyosdagi yutuqlari - 5 ball. Ikkinchi shartda jami 40 ball yig'ish mumkin.

**TANLOVDA
RESPUBLIKAMIZNING
BARCHA MAHALLALARIDA
ISHLAYOTGAN YOSHLAR
YETAKCHILARI
ISHTIROK ETISHI
MUMKIN.**

- Tanlov g'oliblari qanday rag'batlantiriladi?

- Mahalliy bosqichda 1-o'rinni olgan yetakchiga maxsus diplom hamda planshet, 2, 3-o'rin sohiblariga kitoblar to'plami beriladi. Ikkinchi bosqichda 1-o'rin g'olibi maxsus diplom, zamonaviy noutbuk va printer, 2, 3-o'rin egalari esa zamonaviy kompyuter jamlanmasi bilan taqdirlanadi. Respublika miqyosida 1-o'rinni egallagan yoshlar yetakchisi "Kelajak bunyodkori" medaliga tavsiya etiladi. U ishlayotgan mahalla fuqarolar yig'ini kutubxona tashkil etilib, besh ming dona kitoblar jamlanmasi ajratiladi. 2, 3-o'rin g'oliblari "O'zbekiston belgisi", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar a'lochisi", "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishonlariga tavsiya etiladi. Ular faoliyat yuritayotgan mahalla fuqarolar yig'ini kutubxona ochilib, uch ming dona kitoblar jamlanmasi beriladi.

"Fidoyi yoshlar yetakchisi" respublika ko'rik-tanlovida asosiy e'tibor mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyati uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish, tashkiliy-uslubiy ko'mak ko'rsatishga qaratiladi.

Abdumajid AZIMOV
sunbatlashdi

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!



"Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida tashkil etilgan yoshlar festivalining galdagi manzili Samarqand viloyati bo'ldi. "Sog'lom hayot uchun 5 ming qadam" ommaviy urush marafoni bilan boshlangan festival viloyat yoshlarining turli sohalardagi iste'dodini kashf qildi.

Yoshlarning san'at va sportdagi mahorati, intellektual bilimi ham sinovdan o'tkazildi. Qolaversa, festival kun tartibidan raqs, estrada xonandaligi yo'nalishidagi ko'rik-tanlov hamda kitobxonlik ko'rgazmalari o'rin oldi.

Festival doirasida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etilib, unda Paxtachi tumani sektor rahbarlari bilan yoshlar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdi. Ushbu tumandagi 8 ta mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazilgan "Kibersport" musobaqasida esa "Fay", "Bo'ston" va "Obodon" mahallalari sovrinlari o'rinlarni egalladi. G'oliblar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Yoshlar festivali Paxtachi tumanidagi Ziyovuddin yoshlar bog'ida taniqli san'atkorlar ijrosidagi konsert dasturi bilan o'z nihoyasiga yetdi.




Lobar QODIROVA

MAHALLALAR REYTINGI

6 OYDA QAYTA KO'RIB CHIQUILADI

Xabaringiz bor, har bir mahallada yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha reyting tizimi shakllantirilgan. Mazkur reyting tizimi bo'yicha joriy yilning 4-mart holatiga ko'ra, Navoiy viloyatidagi jami mahallalarning 55 tasi "yashil" (16,7 foiz), 218 tasi "sariq" (66,1 foiz) hamda 57 tasi "qizil" (17,3 foiz) hudud sifatida ro'yxatga olingan edi.



Oradan 6 oy o'tib mahallalar toifalarini qaytadan ko'rib chiqish, qaysi hududda ko'rsatkichlar yaxshilangani va aksincha – yomonlashgani yoki o'zgarishsiz qolganini o'rganish, tahlil qilish belgilangan. O'tgan uch oy mobaynida qator mahallarda o'sishlar kuzatilayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

Birgina misol, viloyatning Xatirchi tumanidagi "Tinchlik" mahallasi reyting tizimida "qizil" hudud sifatida ro'yxatga olingan edi. Yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan bugun mahallada bir qator o'zgarishlar, rivojlanishlar ko'zga tashlanmoqda.

Masalan, mahalla hududidan oqib o'tuvchi "Chovla" kanali ustidagi ko'priq talabga javob bermas, bundan maktab o'quvchilari ko'proq aziyat chekishardi. **Mahalla yoshlar yetakchisi Sobir Bahronov** tashabbusi bilan homiylik jalb etilib, hashar yo'li bilan ko'priq yangidan bunyod etildi. Bu hasharda mahalla yoshlari faol ishtirok etdi.

Yoshlar yetakchisi mahalladagi barcha ishsiz yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratishda ham faollik ko'rsatmoqda. Tahlillarga tayanib bu mahalla "qizil"dan "sariq" toifaga chiqib oladi, deyishimiz mumkin.

Dilshod EGAMOV,

Yoshlar ishlari agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi mahalladagi yoshlar vakillari bilan ishlash bo'limi boshlig'i



Viloyatning Nurota tumanidagi "Saydato" mahallasi "sariq" hudud sifatida ro'yxatga olingan. Yoshlar yetakchisi Sirojiddin Sirochev tashabbusi bilan mahallada bir qator o'zgarishlar, tashabbuslar boshlab yuborilgan. Bunday o'zgarishlarni Sirojiddin viloyatdagi, hatto qo'shni viloyatdagi tadbirkorlar hamkorligida amalga oshirmoqda. Shaxsini sir tutishni iltimos qilgan tadbirkor bugun mahallada bir nechta ishsiz yoshlarga yangi ish o'rinlarini yaratdi.

Mahallada istiqomat qiladigan Zohid Mirzayev ishsiz yoshlardan biri edi. U yoshlar yetakchisiga murojaat qilib, dehqonchilik bilan shug'ullanish istagini bildirdi. Mahalla yetakchisi Zohidning 10 sotixli hovlisida dehqonchilik qilish uchun sharoit yaratib berishni taklif qildi. Taklif Zohidga ma'qul bo'ldi. Mahalla yetakchisi tadbirkor ko'magida uning hovlisiga tik quduqdan foydalanib suv chiqartirdi. Hozir Zohid hech qanday muammosiz o'z tomorqasida dehqonchilik bilan shug'ullanmoqda. Yaqin kunlarda hosilni yig'ish arafasida turibdi.

Qolaversa, tadbirkorlar ko'magida shu kunlarda mahallada yangi zamonaviy sport maydonchasini bunyod qilish rejalashtirilgan. Buning uchun har tomonlama qulay joy qidirilmoqda. Sport maydonchasi uchun yer ajratilishi bilan qurilish boshlab yuboriladi.



Xalqimiz yaxshidan bog' qoladi, degan naqlni bekorga aytmagan. Bog' yaratish azaldan eng xayrli ishlar. Ammo hamma hududda ham bog'dorchilik qilish uchun sharoitlar yetarli emas.

Ana shunday hududlardan biri, bu – viloyatning Uchquduq tumanidir. Tumanning asosiy qismi cho'l hududiga to'g'ri kelgani bois "Do'stlik" mahallasida ham birorta bog'ni uchratish amri mahol. Shunday bo'lishiga qaramasdan mahalla yetakchisi Malika Xudoyberdiyeva tashabbusi bilan yangi bog' yaratishga bel bog'landi. Bunda ham mahalla tadbirkorlari yaqindan ko'mak berdi.

Cho'l hududi tuprog'ini unumdor yerga aylantirish uchun 3 metr chuqurlikda jo'yaklar qazilib, unumdor tuproqlar olib kelindi. U yerga 300 tupdan ortiq tok, 200 tupdan ortiq mevali va manzarali ko'chatlar ekildi. Bunga mahalla yoshlari yaqindan yordam berdi.

Ko'rinib turibdiki, "qizil", "sariq" toifasida ro'yxatga olingan mahalla yoshlar yetakchilarining asosiy maqsadi bir pog'ona oldinga harakatlanish bo'lsa, yashil hududga kiruvchi mahalla yetakchilarining niyati shu reytingni saqlab qolishdir. Bunda ularga mahalladagi tadbirkorlar yaqindan ko'mak bermoqda. Belgilangan muddat kelishi bilan mahallalar reytingi qayta ko'rib chiqiladi. Natijalarni, albatta, batafsil e'lon qilamiz.

ENG FAOL YETAKCHIGA "SPARK" BERILDI

Joriy yil may oyida Prezidentimiz tashabbusi bilan anklav hudud yoshlar yetakchilari hamda mahalla xodimlari uchun Kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan tanlov e'lon qilingan edi.

Mazkur tanlovning asosiy maqsadi aholi muammolarini "xonadonbay" va "fuqarobay" o'rganish, ularni hal etishga ko'maklashish, "Ayollar daftari" tizimi samaradorligini ta'minlash hamda ayollarning muammolarini hal etishda fidokorona mehnati bilan barchaga namuna ko'rsatgan mas'ullarni rag'batlantirishdir.

Kuni kecha Farg'ona viloyatining So'x tumanidagi 27 ta mahalla, Farg'ona tumanidagi "Shohimardon" va "Yordon" mahallalari hamda Rishton tumanining "Cho'ng'ara" mahallasidagi mas'ullardan iborat 30 ta mahalla xodimlari ushbu tanlovda ishtirok etib, "Eng yaxshi mahalla raisi", "Eng yaxshi sektor rahbari", "Eng yaxshi xotin-qizlar faoli", "Eng yaxshi yoshlar yetakchisi", "Eng yaxshi hokim yordamchisi" nominatsiyalari bo'yicha g'oliblik uchun bahs olib bordi.



Tanlov yakuniga ko'ra, "Eng faol yoshlar yetakchisi" nominatsiyasi g'olibi bo'lgan So'x tumanidagi "Sharqobod" mahallasi yoshlar yetakchisi Shohjahon Rahimberdiyev Prezident sovg'asi – "Spark" avtomobili bilan taqdirlandi.


– Albatta, bu yuksak mukofot mening kamtarona ishlarimga berilgan rag'batdir, – deydi tanlov g'olibi Shohjahon Rahimberdiyev. – Buni qilgan ishlarim uchun emas, balki kelajakda amalga oshirishim lozim bo'lgan rejamga berilgan avans deb bilaman. Sababi hali mahallamiz yoshlarini rozi qilishim uchun ko'p ishlarni amalga oshirishim lozim. Buning uchun bilim va tajribam bilan harakat qilishga va'da beraman.

Tanlovda 2-o'ringa munosib ko'rilgan Rishton tumanidagi "Cho'ng'ara" mahallasi yoshlar yetakchisi Navro'zbek Bo'ribovga 30 million, 3-o'ringasi So'x tumanidagi "Sarikanda" mahallasi yoshlar yetakchisi Hayitboy Hasanovga 20 million so'm pul mukofoti taqdim etildi.

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

8 MINGDAN ORTIQ YOSHLAR

IT SOHASIDA BEPUL O'QITILMOQDA



So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini yuzaga keltirdi. Mediasavodxonlik esa axborotning nega va nima uchun uzatilayotganini bilish demakdir.

Mediasavodxon inson o'ziga "bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan, bu xabar men uchun zarurmi?" degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondashishi lozim. Shu bois Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyati boshqarmasi qoshidagi Axborot va media xizmati tomonidan yoshlar o'rtasida mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan "Media Bootcamp" loyihasi o'tkazildi.

Loyihada qatnashish istagini bildirgan 315 nafar yoshlardan 63 nafari tanlab olinib, ularga fotografiya, SMM, videoproduction, grafik dizayn, veb-dasturlash yo'nalishlari bo'yicha o'quvlar tashkil etildi. Eng faol yoshlarga maxsus sertifikatlar topshirildi.

Bundan tashqari, "Bir million dasturchi" loyihasi, kibersport chempionati, "Axborot texnologiyalari bilimdoni" tanlovi, "Dasturlashga birinchi qadam", "Xakaton", "Ideaton" loyihalari asosida ko'rik-tanlovlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, seminarlar tashkil etildi. Joriy yilning birinchi choragi yakuni bo'yicha

19 ta tuman va shaharda raqamli texnologiyalar o'quv markazlarida "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 8 ming nafardan ortiq yoshlar kompyuter dasturlash asoslariga bepul o'qitildi. O'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan 728 nafar (10,6 foiz) yoshlarga maxsus sertifikat berildi.

Fevral oyidan boshlab "Yosh jurnalistlar maktabi" bilan hamkorlikda Yoshlar media markazida mediasavodxonlikka doir mavzularda treninglar tashkillanmoqda. Yosh blogerlar bilan hamkorlikda "Insonlar orasi-



**Muhammadamin
G'ANIYEV,**

**Yoshlar ishlari agentligining
Farg'ona viloyati boshqarmasi
boshlig'i**

da" loyihasi yo'lga qo'yildi va uning 8 ta soni audiochat tarzida maxsus (<https://t.me/insonlarorasi>) kanalida o'tkazildi.

Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish yo'nalishida tuman va shaharlardagi IT markazlarida "Kibersport" musobaqalari va "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida o'quv seminarlar, tadbirlar tashkil etilib, jami 25 ming nafar yoshlar qamrab olindi.

Sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish borasida mini-futbol, voleybol, basketbol, stol tennis, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, yengil atletika, stritbol, kibersport musobaqalari tashkil etildi. Futbol bo'yicha "Hokim kubogi", voleybol bo'yicha "Prokuror kubogi" musobaqalari ham minglab yoshlarni qamrab oldi.

Yoshlarni nafaqat ma'naviy, balki moddiy tomondan ham qo'llab-quvvatlash maqsadida yoshlar yetakchilari tavsiyasi asosida 2 567 nafar yoshlarga 9,702 milliard so'mlik ijtimoiy-iqtisodiy yordamlar ko'rsatildi.

“
315 NAFAR YOSH-
LARDAN 63 NAFARI TANLAB OLINIB,
ULARGA FOTOGRAFIYA, SMM,
VIDEOPRODUCTION, GRAFIK DIZAYN,
VEB-DASTURLASH YO'NALISHLARI
BO'YICHA O'QUVLAR
TASHKIL ETILDI.



FAQAT 2 TOIFADAGI TALABALARGA O'QISHNI KO'CHIRISHGA RUXSAT BERILADI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov kuni kecha bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi yalpi majlisida oliy ta'lim tizimida maishiy korrupsiya hamon saqlanib qolayotgani, bu, asosan, o'qishni ko'chirish jarayonlarida kuzatilayotganini ma'lum qildi.

– Ming afsus, maishiy korrupsiya holatlari uchrayapti, lekin tizimli korrupsiyani biz yo'qotdik. Bunga vazir sifatida kafolat bera-man. Korrupsiyaning elementlari talabalarning yaxshiroq yo'nalishga o'qishni ko'chirish jarayonida saqlanib qolayotgandi. Biz bu yil faqat 2 ta shart bilan o'qishni ko'chirishga ruxsat oldik. Endi talaba turmush qursa yoki davlat xizmatchisining ishi boshqa joyga o'tsagina o'qishini ko'chira oladi, – dedi Abduqodir Toshqulov.

Vazirning qayd etishicha, o'qishni ko'chirishda vazir xati talab etiladi. Boshqa toifalardagi talabalarga hech qaysi holatda o'qishni ko'chirishga ruxsat berilmaydi.

O'tgan yili 60 ming talaba o'qishini boshqa OTMga ko'chirish uchun hujjat topshirgan. Masalan, tuproqshunoslikda o'qiyotgan talaba biologiyada o'qishni xohlagan.

– Talaba birinchi kursdanoq maqsadini aniq belgilab olishi kerak. Bu yil jami 150 ming talaba o'qishini ko'chirishga ariza topshirishi prognoz qilingan edi. 150 ming talabgor o'qishini ko'chirish uchun hujjat topshirishi nima degan gap? Bu bir yillik kvota degani. Buning o'rniga akademik mobilikni qo'llash mumkin. Masalan, rektorlar o'zaro kelishib, Surxondaryodagi va Toshkentdagi talabalar almashib, 1-2 semestr o'qiydi. Lekin diplomni bir joydan olishi kerak, – dedi Abduqodir Toshqulov **Parlamentdagi nutqida.**

Bundan tashqari, bu yil magistraturaga hujjat topshirish uchun chet tili sertifikatini majburiyligicha qolishi ham aytilib o'tildi. Abituriyentlar uchun mutaxassislik fanidan imtihon bo'lmaydi, faqat diplomning o'rtacha bali hisobga olinadi. Kvota to'lmasa, qishda yana bir marta qabul bo'ladi.


Vazirning ta'kidlashicha, magistraturaga qabul yaxshi bo'lmagani uchun ham oliy ta'limda nobop kadrlar ko'paygan. Qabul tizimi o'zgarishi sifat o'zgarishiga ta'sir qiladi deb umid qilinmoqda.

Shahruza SATTOROVA



FINALDA "NAMANGANLIK BOJALAR"

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida Namangan viloyatida "Quvnoqlar va Zukkolar" tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Qizg'in bahs-munozaralarga boy bo'lgan tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Namangan shahar "Sharq tongi" mahallasining "Namanganlik bojalar" jamoasi qo'lga kiritdi va keyingi bosqichga yo'l oldi.



QADIMGI RIM BANKI RLARI

Nurillo TO'XTASINOV,
Bank-moliya akademii
yasi MBA magistranti

Qadimgi Rimda ilk banklar ibodatxonalar-da joylashgan. Xususan, xazina ibodatxona yerto'lasida saqlangan, ibodatxona qarz berish bilan ham shug'ullangan.

Ibodatxonalarni ruhoniylar nazorat qilgani va qurollangan askarlar muntazam qo'riqlagani sababli badavlat rimliklar u yerni pul qo'yish uchun xavfsiz joy deb bilishardi. O'z navbatida, ruhoniylar omonat va ssudalar hisobini yuritgan. Qaydnomalarda yozilishicha, qadimgi Rim Imperiyasida minglab ibodatxonalar bo'lib, Saturn ibodatxonasida davlat xazinasi – "Aerarium" joylashgan edi. "Juno Moneta" esa zarbxona vazifasini o'tagan.



MENSARIY

Mensariy (lotincha "mensa" yoki "bank" so'zidan kelib chiqqan) davlat tomonidan alohida sharoitlarda, xususan, umumiy qashshoqlik yoki urush davrida tayinlangan. Ular nihoyatda hurmatli davlat bankirlari bo'lib, maqsadi plebeylarga iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam berish edi. Bu o'sha vaqtda ijtimoiy tartibsizliklarning oldini olishdagi samarali yo'l sifatida ko'rilgan. Mensariylar birinchi marta miloddan avvalgi 352-yilda paydo bo'lgan.

Qadimgi Rimda qarzdor plebeylar (nexum) qarz majburiyatlarini bajara olmaganlarida qullikka duchor bo'lishlari mumkin edi.

Mensariylarning ba'zi funksiyalari aslida argentariy bilan bir xil edi va hatto qadimgi davrlarda ham odamlar ikkalasini chalkashtirib yuborishgan. Mensariylar omonatlar (masalan, askarlarning maoshi)ga ega bo'lgan. Ular tangalarning qiymatini va haqiqiylikini ham aniqlagan.

ARGENTARIY

Miloddan avvalgi III va milodiy III asrlar oralig'ida O'rta yer dengizi bo'ylab savdoning kengayishi Rim dunyosida bank faoliyatini rivojlantirdi. Forumdagi ibodatxonalaridan tashqari do'kon va rastalarda xizmat qilgan sarrof ya'ni pul almashtiruvchilar ham bank faoliyati bilan shug'ullangan va ularning roli savdoning taraqqiy etishi bilan katta ahamiyat kasb etadi.

Valyuta almashtiruvchilardan oldin Forum atrofidagi uylarda bank operatsiyalari bilan shug'ullanadigan trapezitlar (yunoncha "trapeza" – sarrof) bo'lgan. Keyinchalik bu atama lotincha argentariy va mensariy atamalarini bilan almashtirildi.



QADIMGI RIMDA SIYOSIY HAYOTNING MARKAZI — JAMOAT MAYDONI FORUM DEB ATALGAN. FORUMDA BOZOR, IBODATXONALAR, SUD, XALQ YIG'INLARI VA BOSHQA MAQSADLAR UCHUN QURILGAN BINOLAR BO'LIB, ATROFI USTUNLI PESHAYVON VA HAYKALLAR BILAN BEZATILGAN.

Biroq argentariylardan farqli o'laroq mensariylarning roli umuman ijobiy deb hisoblangan. Chunki ular Rim iqtisodiyotidagi ortiqcha qarz muammosini hal qilishga muvaffaq bo'lishadi. Jumladan, Gay Duiliy, Pabliy Detsiy Mus, Mark Papiriy, Kvint Pabliy va Tit Emiliy kabi ba'zi mensariylarning nomlari Qadimgi Rim dunyosida mashhur.

NUMMULARIY

Nummulariyar zarbxona zobitlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi yangi tangalarning sifatini tekshirish edi. Ular yangi tangalarni muomalaga chiqarib, evaziga eski yoki xorijiy tangalarni olgan. Xuddi argentariy va mensariy singari ular tangalarning haqiqiylikini, ayniqsa, katta summlar tekshiruvda ishtirok etgan. Pul almashtirish, omonatlarini saqlash, qarzga pul berish, o'z mijozlari nomidan to'lovlarni amalga oshirish nummulariyarlarga ham taalluqli hisoblangan.

Argentariyning asosiy vazifasi chet el valyutasini Rim valyutasiga ("permutatio") almashtirish edi. Ularning Forum atrofidagi joylashgan do'konlari vaqt o'tishi bilan funksional jihatdan kengayib pul saqlash, qarz berish, auksionlarda ishtirok etish, tangalarning qiymati va haqiqiylikini aniqlash, yangi zarb qilingan pullarni muomalaga chiqarish vazifalarini bajara boshlaydi.

Ularining ishi zamonaviy banklarnikiga juda o'xshab ketgan. Aniqrog'i, har xil toifadagi argentariylar bor edi. Ba'zilari juda hurmatga sazovor va yuqori tabaqadan bo'lib, odatda katta miqyosda va juda badavlat odamlar uchun faoliyat yuritgan. Ba'zilari esa yuqori stavkalar olgan va kichik miqyosda biznes yuritgan.

Argentariy badavlat kishilar omonatga qo'ygan pullarni (depositum) saqlagan. Zamonaviy banklardagidek to'lov amaliyotlari pul egasi argentariyga ma'lum qilganida yoki chekdan (perscriptio) foydalanganda amalga oshirilgan. Agar bitimda ishtirok etgan ikki shaxs bir xil argentariydan foydalangan bo'lsa, argentariy o'zining kodekslar (yoki tabulae, rationes) deb nomlangan ki-


tblarida bir hisobdan ikkinchisiga pul o'tkazmasini yozib qo'ygan. Kodekslar juda aniq edi, ularda sana va har bir operatsiya qayd etilgan. Bu yozuvlar sudlarda dalil sifatida ishlatilgan.

Yana bir muhim jihati, pul shunchaki depozitga qo'yilganda argentariy hech qanday foiz to'lamagan va bunday pul "vacua pecunia" deb nomlangan. Agar argentariy depozit egasiga foiz to'lashi kelishilgan bo'lsa, qo'yilgan mablag'ni boshqa foydali operatsiyalarda, masalan, boshqa shaxslarga qarz berishda ishlatishi mumkin edi.

Argentariy ommaviy auksionlarda va tijorat bitimlarida ham qatnashgan. Bunda ular boshqa shaxslar nomidan ish olib borishgan, to'lovlarni qabul qilgan va ishtirokchilar, bitimlar, sotilgan buyumlar hamda ularning qiymatini ro'yxatdan o'tkazgan. Tijoriy operatsiyalarda esa ular ikkala tomon (sotuvchi yoki xaridor) uchun agent sifatida harakat qilgan, hatto biror bir shaxsning mulkini sotishda ishtirok etgan. Shuningdek, Imperiya davrida ular zarbxonalardan yangi tanga pullarni (solidorum venditio) sotib olib, xalq orasida muomalaga chiqarishgan.



PLEBEY – PATRISIY, SENATOR YOKI OTLIQ SINFLARGA MANSUB BO'LMAGAN BARCHA ERKIN RIM FUQAROLARI. PLEBEYLAR QATORIGA RIMNING O'RTACHA ISHLAYDIGAN FUQAROLARI – DEHQONLAR, NOVVOYLAR, QURUVCHILAR YOKI HUNARMANDLAR KIRGAN. ULAR O'Z OILALARINI BOQISH VA SOLIQLARNI TO'LASH UCHUN KO'P MEHNAT QILGAN.



O'ZBEKISTONGA KIRISH UCHUN PZR-TEST, VAKSINA SERTIFIKATI TALAB QILINMAYDI

2022-yil 10-iyundan boshlab O'zbekistonga turizm maqsadida keluvchilar uchun aviaqatnovlar, chegaradosh temir yo'l stansiyalari va avtomobil o'tkazish chegara punktlari orqali harakatlanishida koronavirus infeksiyasi bilan bog'liq o'rnatilgan vaqtinchalik cheklavlar bekor qilinadi.

Shu bois xorijlik sayyohlar O'zbekistonga kelishidan oldin koronavirus infeksiyasiga PZR test natijasi bo'yicha manfiy natijali ma'lumotga ega bo'lishi, koronavirus infeksiyasiga ekspres-antigen test topshirishi hamda tegishli tartibda emlanganlik sertifikatini yoki pasportiga ega bo'lishi talab etiladigan qoidalar bekor qilinadi.


G'OLIB ANIQLANDI!

Loyiha muallifi: Ziyoda RAHIMBOYEVA.

Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan gazeta-mizning 30-sonida ilk bor e'tiboringizga taqdim etilgan "Muzei va yoshlar" loyihasining g'olibi aniqladik. Pochta manzirimizga yo'llangan o'nga yaqin taqrizlar ichida qiziqarli va foydali ekanligi bilan ajralib turgan taqriz egasi bilan tanishning – Komiljonova Nozima Avazbek qizi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

"G'olib ishtirokchiga qanday sovg'alar bor?" deb qiziqayotganlar uchun: kuni kecha g'olibimizga tahririyat tomonidan mukofot sifatida jahon va o'zbek adabiyotining shoh asarlari uchligi – Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" hamda Fyodor Dostoyevskiyning ikki qismdan iborat "Aka-uka Karamazovlar" asarlari, odatiy diplom yoki tashakkurnomadan voz kechgan holda muzei surati tushirilgan laganga yozilgan kreativ tabrik va loyihamizning keyingi manziliga aylanishi kutilayotgan Toshkent davlat tabiiyat muzeyiga (mutaxassis gid hamrohligida) ikki kishilik yo'llanma topshirildi.

G'olibimizga ishtiroki uchun tashakkur aytamiz va loyihamizning keyingi sonlarida ham faol bo'lishga chorlab qolamiz! Quyida O'zbekiston tarixi Davlat muzeyidagi sayohat taassurotlari va ishtirokchimizning qo'shimcha ma'lumotlari o'rin olgan taqriz bilan tanishishingiz mumkin.



PENSIYA VA NAFAQANING FARQI

Pensiya qonunda belgilangan yoshga yetganda yetarlicha ish stajiga ega bo'lgan shaxslarga tayinlanadi. Uning miqdori ish stajiga va ish haqining yuqoriligiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Nafaqa esa ish stajiga ega bo'lmagan, mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslarga tayinlanadi. Nafaqa miqdori davlat belgilagan qat'iy miqdorda bo'ladi.

Xayriddin MURODning

@tahrir_uz telegram kanalidan olindi.



ULUG'VOR MUZEYDAN OLGAN YORQIN TAASSUROTULARIM


18-may – Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan "Yoshlar ovozi" gazetasida tashkil etilgan "Muzei va yoshlar" loyihasi haqida gazeta telegram kanalida o'qib, respublikamizning eng yirik – O'zbekiston tarixi Davlat muzeyiga keldim. Taassurotlarim judayam a'lo, eng yaxshilarini esa sizlarga ulashishga qaror qildim.

Muzeiga mahalliy aholidan tashqari chet elliklar ham tez-tez tashrif buyurishar ekan. Xususan, men borgan kun ham muzei belaruslik turistlar bilan gavjum edi. Tarixchi gidlar mehmonlarni muzei bilan tanishtirib, har bir eksponat haqida alohida ma'lumot bera boshladi. O'zim tarix yo'nalishida tahsil olayotganim va talabalik davrimizning birinchi bosqichida o'tilgan arxeologiya fanidan darslarni yaxshi o'zlashtirganim uchun tarixchi gid yollashga ehtiyojim bo'lmadi. Bir boshdan, shoshilmay, diqqat bilan kuzata boshladim: muzeyda eksponatlar davrlarga moslashtirib terilgan, shu sabab o'zingizni tarix davrlari aro aylanib yurgandek his qilasis.

Muzeining "Ibtidoiy davr"ga tegishli ilk bo'limida menda yorqin taassurot qoldirgan eksponat Sopolitepadan topilgan qabr bo'ldi. Bu qabrnin ochilishi to'g'risida bizga ustozimiz, akademik Ahmadali Asqarov hikoya qilib bergan edi. Ustoz Surxondaryo viloyati Sopolitepa manzilgohidagi qabristonda qazish ishlarini o'tkazayotgan vaqtda boshqacha uslubda ko'milgan qabrga ko'zi tushadi. Qabrdagi terilgan gishtlarni sekinlik bilan olib qarasa, ichkarida nihoyatda gozal bir malakni ko'rib,

hayratdan qotib qoladi. Uning yorqin rangli kiyimlari, taqinchoqlari va ayol kishiga zeb berish maqsadida ishlatiladigan surma va bo'yoqlaridan ko'zlari qamashib ketadi. Qabrdagi jasad juda yaxshi saqlanib qolgan edi. Lekin gisht olingandan so'ng jasad qorayishni boshlaydi. Arxeolog jasadni shunday holatida suratga olish maqsadida shu yaqin atrofdagi paxta dalasini suratga olishga kelgan televideniye vakillaridan fotoapparatni so'raydi. Afsuski, ular fotoapparatni berishdan bosh tortishadi. Oqibatda insoniyat shunday g'ayrioddiy go'zallikni ko'rishdan mahrum bo'ldi.

Eksponatlarni kuzatib, sayohatni davom ettirar ekanman, "O'rta asrlar" bo'limidagi suratlardan



66

BU MUZEYGA HAR BIR O'ZBEKISTONLIK, ALBATTA, KELISHI KERAK DEB O'YLAYMAN. MILLATNING HAR BIR FARZANDI O'Z TARIXINING NAQADAR BUYUKLIGI VA ULUG'VORLIGINI HIS QILISHI LOZIM!


biri e'tiborimni tortdi. Ma'lumki, arab istilosidan so'ng Mo'varounnahr hududida bosqinchilar o'z soliq tizimlarini joriy qilishadi. Zakot, jizya, xiroj, ushr shu soliqning asosiy turlari edi. Ulardan biri jizya soligi islom dinini qabul qilmagan aholidan olingan. Ushbu soliqni vaqtda to'lamagan aholining bo'yniga "qarzdor" degan taxtacha osib qo'yilgan. Siz albatta keilib ko'rishingiz kerak bo'lgan bu suratda arablar tomonidan soliqlarni vaqtda to'lamaganlarning bo'ynilariga taxtacha ilish holati aks etgan.

Muzeining XX asr o'rtalaridagi bo'limiga kelarkanmiz, yana bir eksponat kishini qiziqtirish bilan birga chuqur o'ylashiga sabab bo'ladi. Bu Toshkent zilzilasi boshlangan kuni, 1966-yil 26-aprel, dahshatli zilzila boshlangan tonggi 05:23 da Toshkentning markaziy ko'chalaridan biriga o'rnatilgan soat sinib tushib, ishlashdan to'xtab qolgan, u hanuz o'sha mudhish vaqtni ko'rsatib turibdi! Bu zilzila natijasida 2 million metr kvadratdan ziyod turar joy maydoni, 236 ta ma'muriy bino, 700 ga yaqin savdo va ovqatlanish shoxobchalari, 26 ta kommunal xo'jalik korxonasi, 180 ga yaqin o'quv yurti, 8 ming o'rinni maktablar, 36 ta madaniy-maishiy muassasalar, 185 ta tibbiyot va 245 ta sanoat korxonasi binolari jiddiy talafot ko'rdi. 78 ming oila yoki 300 ming odam (o'shanda Toshkentda yarim million aholi istiqomat qilgan) boshpanasiz qoldi. Ayrim manbalarda zilzilada 8 kishi halok bo'lib, 150 ga yaqin kishi jarohatlangani aytiladi. Ayrimlar esa raqamlar ancha jiddiy ko'rinish tus olgandi, deb xabar beradi.

Muzeidan juda yorqin va ajoyib taassurot oldim. Men borgan boshqa muzeylardan eksponatlariga boyligi va yirikligi bilan ajralib turuvchi bu dargoh chin ma'noda O'zbekistondagi tayanch muzei hisoblanishiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Bu muzeiga har bir o'zbekistonlik, albatta, kelishi kerak deb o'ylayman. Millatning har bir farzandi o'z tarixining naqadar buyukligi va ulug'vorligini his qilishi lozim! Muzeilar esa bunda eng katta ko'makchi bo'la oladi!

Nozima KOMILJONOVA,

TDPU tarix yo'nalishi
2-bosqich talabasi



iBook

Biz ilm bilan fath qilamiz.

iBook.uz kitob do'koni kitobxonlarga badiiy, ilmiy, diniy, psixologik va biznesga oid 1000 dan ortiq kitoblarni taqdim etib kelmoqda.



iBook.uz loyihasi doirasida "Tirilish" nomli nashriyot ham ochilgan bo'lib, bugungi kunda 10 ga yaqin kitoblar chop qilindi. Bu kitoblar keng kitobxonlar davrasida sevib o'qilmoqda.

iBook.uz talaba-yoshlarni rag'batlantirish maqsadida iBook.uz stipendiyasi tanlovini e'lon qilgan bo'lib, unda g'olib bo'lgan yoshlarga diplom, pul mukofotlari, kitoblar to'plami va turli esdalik sovg'alari taqdim etiladi.



ibook_uz

ibook.uz

ibook.uz

+998942687374

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ruyxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va saflandildi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma taboq. Ko'xona manzili: Buyuk Turan ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-655, Adadi - 10584. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6